



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etish tizimini takomillashtirishning dolzarb muammolari

Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li

Toshkent moliya instituti, mustaqil tadqiqotchisi, PhD

Yozishmalar uchun electron pochta: hoshimovjahongir47@gmail.com

Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqti: 20.11.2023

Qabul qilingan vaqti: 06.12.2023

Tayanch so'z va iboralar xorijiy investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, YaIM, asosiy kapital, indeks.

Annotatsiya

Maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish yo'llari ko'rsatilgan. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy muammolari o'rganilgan. Raqobatbardosh sanoat unumdorligi bo'yicha reyting va indeksi ko'rsatkichlari o'rganib chiqilgan. Osiyo va MDH mamlakatlariga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etishni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Actual problems of improving the system of attracting foreign investments to the economy

Khoshimov Jahongir Ravshanbek ugli

Independent researcher of Tashkent Financial Institute PhD

Corresponding author: email: hoshimovjahongir47@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 20.11.2023

Accepted: 06.12.2023

Key words: foreign investment, foreign direct investment, GDP, fixed capital, index.

Abstract

The article shows ways to improve the system of attracting foreign investments. The main problems of attracting foreign investments are studied. Rating and index indicators of competitive industrial productivity were studied. The volume of foreign direct investments attracted to Asian and CIS countries was analyzed. Proposals and recommendations on the development of attracting foreign investments to the economy have also been developed.

Kirish

Dunyoda sodir bo'layotgan turli iqtisodiy inqirozlar sharoitida xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiyalash, qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etgani holda rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy bozorda raqobatni kuchaytirish, inson kapitalini rivojlantirishga muayyan darajada xizmat qilib kelmoqda [1]. Investitsiya bo'lmasa, iqtisodiyot rivojlanmaydi. Investorlarga muhit, infratuzilma yaratsak, ish joyi bo'ladi, mahsulot ko'payadi, soliq tushadi. Korxonalarning o'z mablag'ini yana aylantirib, faoliyatini rivojlantirishga rag'batlantirish kerak deb ta'kidlagan [2].

Adabiyotlar sharhi

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan quyidagicha ta'riflar berilgan.

«Xorijiy investitsiyalar – tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida bir mamlakat hududidan boshqa mamlakat hududiga joylashtiriladigan barcha turdagi mulkiy va intellektual qiymatliklardir» [3]; «Xorijiy investitsiyalar – uzoq muddat mobaynida daromadga ega bo'lish maqsadida o'zga mamlakatga kapital joylashtirishni anglatadi. Bu turdagi investitsiyalar asosiy kapitalni yangilash va kengaytirish, investitsiya siyosatini amalga

oshirish, milliy iqtisodiyotning yuksalishi va rivojlanishini ta'minlash, bozorni raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar bilan to'ldirish uchun mamlakat resurslarini sezilarli darajada oshiradigan qo'shimcha kapital manbai» [4]; «Subyektlar tomonidan nisbatan yuqori darajada foyda olish maqsadida bir mamlakat hududidan mutloq boshqa mamlakat hududiga muayyan muddatga joylashtiriladigan turli ko'rinishdagi boyliklarga xorijiy investitsiyalar deyiladi» deb ta'riflar bergan [5]. «Xorijiy investitsiyalar – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa turdagi samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga xorijiy kapitalning kiritilishidir» [6].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, statistik tahlil, taqqoslash, omilli tahlil usullaridan foydalanildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi

Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan 15 ming dan ortiq korxona mavjud, jumladan, "General Motors", "MAN", "Knauf", "Itochu", "Rieter", "Klaas", "Nestle" kabi va jahonga

masihur korporatsiyalar, "Coca-Cola", "Kogas", "Sasol", "Ariston", "CNPC", "Indorama", "Gazprom", "Lukoil", "Algie", "Lotte", "Sumitomo", "Korea Telecom" va boshqalarni keltirib o'tishimiz mumkin. Bu esa davlatimizning investitsion jozibadorligi va salohiyati yuqori bo'lganligi bois, ushbu yirik brend korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda.

Yangi O'zbekistonda yanada qulay investitsiya muhitini yaratish va investitsiya jozibadorligini oshirish bo'yicha misli ko'rilmagan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda, bu esa xorijiy investitsiyalar oqimini ko'payishiga erishadi. Neftni qayta ishlash, neft qazib olish va kimyo sanoati O'zbekistonda investorlarni keng jalb qilmoqda. Eng katta qiziqish bildiriyotgan mamalakatlar Xitoy, Germaniya, AQSh va Rossiyada davlatlari hisoblanadi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, va YaIM hajmini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, mamlakatimizga jalb qilingan investitsiyalar miqdori 2010-2022 yillarda faqat o'sish tendensiyalari kuzatilgan. Bunga sabab mamlakatimizda investorlarga yaratilgan shart-sharoitlar ularga berilgan imtiyoz, kafolat, preferensiyalar berilganligi bois investorlar Yangi O'zbekistonimizga investitsiya kiritish hajmi ortib bormoqda. Shuningek YaIM ning investitsiyalarga nisbatan ulushi 30,3 foizni tashkil qildi (1-rasm).




1-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, va YaIM hajmi trln. so'mda [7]

2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2016-2022 yillarda mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar oqimi ko'rib chiqamiz. Ushbu yillarda jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi o'sish va kamayish tarzda kuzatilgan. Yetti yil davomida iqtisodiyotimizga kiritilgan xorijiy investitsiyalar miqdori 40 milliard AQSH dollar yetgan. Mamlakatimizga kiritilgan xorijiy investitsiyalar oxirgi yillarda o'sishi kuzatilgan 2016 yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sgan.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritmoqda. Asosiy investor davlatlar beshligiga esa quyidagilar kiradi. Jumladan: Xitoy - 2,2 mlrd dollar; Rossiya - 2,1 mlrd dollar; Turkiya - 1,18 mlrd dollar; Germaniya - 800,7 mln dollar; Janubiy Koreya - 137,4 mln dollar kiritgan. 2021 yil yakuniga ko'ra, o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 11,1 mlrd dollarni tashkil etib, yillik prognozga nisbatan 113 foizga bajarilgan. Shu jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9,8 mlrd dollarga yetgan (2020 yil

ko'rsatkichlariga nisbatan o'sish sur'ati 110 foizga teb bo'lgan). Investitsiyalarning asosiy hajmi energetika sektori, metallurgiya, kimyo sanoati, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish, IT-texnologiyalar, qurilish,

farmatsevtika, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga to'g'ri kelgan.



2-rasm. Mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar oqimi (milliard AQSH dollarida) [8]

O'zbekiston 2019-yilda birinchi marta Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish cheklovlari indeksi"ga kiritildi va ushbu indeksga ko'ra, 2020-yilda jahonda 43-o'rinni, Osiyo mintaqasida 7-o'rinni qayd etdi. Xususan, mamlakatda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida yangi "Soliq kodeksi", "Investitsiya va investitsion faoliyat to'g'risida"gi qonun, "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Investorlar uchun qulay sharoit yaratish uchun Xalqaro Toshkent arbitraj markazi tashkil etildi hamda "investitsiya krediti", "investitsiya subsidiyasi" va "investitsion viza" kabi yangi mexanizmlar joriy qilindi. 2017–2022 yillarda O'zbekiston xalqaro Iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o'z o'rnini 31 pog'onaga yaxshilab, 148-o'rindan 117-o'ringa ko'tarildi.

Bugungi kunda, O'zbekiston ayrim global indekslarda faol ishtirok etmoqda. Jumladan, Raqobatbardosh sanoat unumdorligi bo'yicha reytingida O'zbekiston 2021 yilda 154 davlat ichida 94 o'rinda turgan edi. 2022 yilga kelib 89-o'ringacha ko'tarilishga muvaffaq bo'ldi, ya'ni 2 yil ichida 5 pog'onaga ko'tarilgani ko'rishimiz mumkin. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 26-maqsadida ham aynan mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish bo'yicha, keng ko'lamli islohatlar amalga oshirish vazifalar qo'yildi. Aynan bu vazifalarni to'laqonli amalga oshirishimizda halqaro reyting tashkilotlarga a'zo bo'lishimiz va yuqori natijalarni qayd etsakgina shunda xorijiy investorlar mamlakatimizga investitsiya kiritish hajmi ya'na-da ham oshgan bo'lar edi (1-jadval).


1-jadval

O'zbekiston va MDH davlatlarining Raqobatbardosh sanoat unumdorligi bo'yicha indeksi va reyting natijalari [9]

№	Davlatlar	2021 yil		2022 yil		Reytingdagi o'zgarish
		Indeks	Reyting	Indeks	Reyting	
1	Rossiya	0,096	35	0,088	35	-
2	Belorusiya	0,064	46	0,058	46	-
3	Qozog'iston	0,038	65	0,037	63	+2
4	O'zbekiston	0,017	94	0,017	89	+5
5	Armaniston	0,015	99	0,013	98	+1
6	Moldava	0,011	108	0,011	107	+1
7	Ozarbayjon	0,009	118	0,009	118	-
8	Qirg'iziston	0,008	123	0,006	125	-2
9	Tojikiston	0,006	129	0,005	130	-1

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlariga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2012 yilda qariyb 55 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Shuningdek, 2022 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 45,1


milliard AQSH dollarga yetgani ko'rishimiz mumkin. 12 yil davomida MDH davlatlariga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 534,3 milliard AQSH dollarni tashkil qilgan (3-rasm).



3-rasm. 2010-2022 yillarda MDH mamlakatlariga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi (milliard AQSH dollarida) [9]

2021–2022 yillar Osiyo davlatlariga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini tahlil qilib chiqamiz (3-rasm). Sharqiy Osiyoda Xitoyga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqim 5 foizga oshib, 189 milliard AQSH dollarni tashkil etdi, asosan ishlab chiqarish va yuqori texnologiyali sanoatiga to'g'ri keldi. Janubi-Sharqiy Osiyoda eng ko'p to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilgan davlat Singapur hisoblandi ushbu davlatga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar miqdori 8 foizga oshib, 141 milliard AQSH dollarni tashkil etdi. Malayziyada esa oqim 39 foizga o'sib, 17 milliard AQSH dollarni tashkil etdi - bu mamlakat birinchi marta eng ko'p xorijiy investitsiya jalb qilgan (4-rasm).

Vyetnam va Indoneziyaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 14 foiz va 4 foizga o'sib, mos ravishda 18 milliard va 22 milliard AQSH dollarni tashkil etdi. Filippinga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 23 foizga kamaydi. G'arbiy Osiyoda Saudiya Arabistoniga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqim 59 foizga qisqarib, 7,9 milliard AQSH dollarni tashkil qildi. Birlashgan Arab Amirliklariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 10 foizga oshib, 23 milliard AQSH dollarni tashkil etdi - bu tarixdagi eng ko'p jalb qilgan hisoblandi. Mamlakat yashil maydon loyihalari soni bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinni egalladi. Turkiyada esa oqim 9 foizga oshib, 13 milliard AQSH dollarga yetdi.




4-rasm. 2021–2022 yillar Osiyo davlatlariga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, milliard AQSH dollar [10]

Janubiy Osiyoda Hindistonga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 10 foizga oshib, 49 milliard AQSH dollarni tashkil qildi, chunki mamlakat yashil maydon loyihasi e'lon qilish bo'yicha uchinchi va

xalqaro loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ikkinchi yirik davlatga aylandi. Bangladeshdagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 20 foizga o'sib, 3,5 milliard AQSH dollarni tashkil etdi. Markaziy Osiyoda Qozog'iston esa,

asosan, qazilma boyliklarni qazib olish sanoati deyarli ikki baravar oshib, 6,1 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekistonda ham to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 11 foizga oshib, 3 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.



5-rasm. 2022-yilda eng ko'p to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilgan yetakchi davlatlar (milliard AQSH dollarida) [11]

5-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2022-yilda AQSHga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 285 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan. Ikkinchi o'rinda Xitoy Xalq Respublikasi egallagan bo'lib qariyb 189 milliard AQSH dollar oqimiga ega bo'lgan. AQSH bilan XXR solishtiradigan bo'lsak, AQSH 96 milliard AQSH dollardan ortiq miqdorda jalb qilgan. Uchinchi o'rinda esa Singapur davlati qayd etgan bo'lib ya'ni 141 milliard AQSH dollarga yetgan.

Mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat: qulay investitsiya muhitining yo'qligi; xususiy mulk huquqlarini tartibga solish va himoya qilish sohasining nomukammalligi; infratuzilmaning sust rivojlanganligi; O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini jahon ommaviy axborot vositalarida reklamasi yo'lga qo'yilmaganligi; investitsiyalarning viloyatlararo taqsimotida yuqori differensiyalashganligi; investitsiya infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi banklar, investitsiya fondlari va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yilmagan; tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlari etarli emasligi; hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlanmaganligi; infratuzilma darajasining pastligi (audit, sugurta, konsalting, baholash, huquqiy madad, telekommunikatsiyalar, transport va mehmonxona xizmati); fond bozorining sust rivojlanganligi, depozit xizmatining nomukammalligi, bozorga tegishli ma'lumotlarning yetishmasligi, fond qimmatli buyumlarining past likvidiligi va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan ushbu ma'lumotlarning yechimi sifatida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish o'rinli deb hisoblaymiz: xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki muhitni yaxshilash; soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini yanada soddalashtirish; xorijiy investitsiyalarni ro'yxatga olish tizimini soddalashtirish; investitsiya infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi banklar, investitsiya fondlari va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish; mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarini hisobga olgan holda respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish; xorijiy investorlarni axborot bilan, huquqiy va boshqa tomondan qo'llab-quvvatlash, shuningdek davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy tadbirkorlar bilan investitsiya faoliyati sohasida o'zaro hamkorlikni tashkil etishda ularga ko'maklashish; respublikaning iqtisodiy, resurs va investitsion salohiyatini keng targ'ib qilish va ilgari surishni, yaratilgan qulay shart-sharoitlar, xorijiy investorlarga beriladigan imtiyozlar, afzalliklar haqida chet el ishbilarmon doiralari orasida, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlari olib borishni tashkil etish lozim; ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet tarmog'ida respublika investitsiya salohiyati haqida axborot-reklama materiallarini muntazam joylashtirishni va yangilab borish lozim.

Xulosa va takliflar

Hozirgi kunda respublikamizda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish bo'yicha bir qancha muammolar mavjud.

aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi va aholi daromadlari miqdori yuqori emasligi, Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lmaganli esa xorijiy investorlarning iqtisodiy manfaatlarini kamaytiradi;

moliya bozorining yaxshi rivojlanmaganligi natijada erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan ulushi past (0,3 foiz);

kapital bozoriga uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ega yirik institusional investorlarni jalb qilish bo'yicha ishlar sust olib borilmoqda;

transport infratuzilmasining rivojlanmaganligi yuk tashish xarajatlarining yuqori darajadali;

ish haqidan yuqori darajada soliqlarning olinishi va ijtimoiy to'lovlar yuqori darajadali.

Xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb qilishga bir tomonlama, alohida muammo sifatida qaramaslik kerak. Yuqorida qayd etib o'tilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

ilg'or xalqaro amaliyotni joriy qilish, ortiqcha to'siqlar, cheklovlar va sohaning haddan tashqari tartibga solinganligini bartaraf etish orqali fond bozorida rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarni faol moliyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

minoritar investorlar, kapital bozorining boshqa ishtirokchilari hamda aholi keng qatlamlarining bilimlari, ko'nikmalari va moliyaviy savodxonligini oshirishni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida 2023 yil yakuniga qadar 40 ming nafar aholini qamrab olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Манба:
<https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2001/06/loungani.htm>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/01/25/invest/#:~:text=Investitsiya%20bo%E2%80%98lmasa%2C%20iqtisodiyot%20rivojlanmaydi.>
3. Сулейманов М.Д., Михин А.А. Иностранные инвестиции. Монография. – М.: МНИ, 2011. – С. 6-7.
4. Оксютик Г.П. Иностранные инвестиции в России. Монография. – СПб. Издательство СанктПетербургского университета управления и экономики, 2014. – С. 11-13.
5. J.R.Hoshimov. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TMI, 2022, 8 bet.
6. Karimova G.A. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarini jalb qilishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. – T.: TMI, 2019. – B. 13.
7. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2>
8. Muallif tomoindan tayyorlandi.
9. <https://miit.uz/oz/menu/pokazateli-uzbekistana-v-mezhdunarodnyh-rejtingah-menu>
10. <https://www.statista.com/statistics/1368236/mutual-fdi-stock-cis/>
11. UNCTAD, FDI/MNE database (<https://unctad.org/fdistatistics>)